

CLAUSON LUG‘ATIDA ESKI O‘ZBEKCHA FE‘LLAR QAYDI

Nilufar Zulpiqorova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15687797>

Annotatsiya. *Qadimgi turkiy tillar, xususan XIII asrgacha bo‘lgan davr til materiallarini to‘plagan Sir Gerard Clauson o‘zining “An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish” nomli nodir asarida turkiy tillar etimologiyasiga yirik hissa qo‘shgan. Mazkur lug‘atda minglab fe‘llar fonetik, morfologik va semantik mezonlar asosida izohlangan. Qadimiy matnlardagi shakllari, turli turkiy lahjalaridagi variantlari, qo‘llanish konteksti, hosila so‘zlar yasalishi haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Ushbu maqolada Sir Gerard Clausonning etimologik lug‘ati asosida Chig‘atoy tilidagi ayrim fe‘llarning kelib chiqishi, semantik o‘zgarishlari va boshqa turkiy tillardagi shakllari tahlil qilinadi. Etimologik izlanishlar orqali bu fe‘llarning tarixiy-ma‘naviy qatlamlari yoritilib, ularning zamonaviy o‘zbek tilidagi izlari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: Gerard Clauson, til, etimologiya, lug‘at, tilshunoslik, turkona, atama.

Tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘z lug‘aviy boyligini turli manbalardan to‘ldirib boradi. Har bir so‘zning ma‘no va shakl jihatdan o‘zgarishi, boshqa tillardan kirib kelishi, zamon o‘tishi bilan yangi semantik tus olishi uning etimologiyasini o‘rganish orqali aniqlanadi. Etimologiya – bu so‘zlarning kelib chiqishini, dastlabki shakl va ma‘nosini, tarixiy taraqqiyoti davomida qanday o‘zgarishlarga uchraganini o‘rganadigan fandir. Shu bois, etimologik tahlil tilshunoslikda so‘zlarning genetik ildizini aniqlash, ularni tasniflash va turkiy tillar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni ochib berish uchun muhim vositadir. Turkiy tillarning tarixiy rivojlanishini o‘rganishda fe‘l so‘z turkumi alohida ahamiyatga ega. “Fe‘l sintaktik konstruksiyalarda markaziy o‘rinni egallaydi, gap qurilishini belgilaydi, uning qanday ma‘noli so‘zlardan tarkib topishini bildirish imkoniga ham ega bo‘ladi”¹. Fe‘llar harakat, holat, jarayon, aqliy faoliyat, sezgi va nutq kabi ko‘plab semantik maydonlarni ifodalovchi markaziy so‘zlar hisoblanadi. Ularning etimologik jihatdan tadqiq etilishi til taraqqiyotining qadimiy qatlamlarini ochib berish, morfologik tuzilmalarning shakllanishini anglash, shuningdek, tarixiy va madaniy kontekstda so‘zlar qanday shakllanib, qanday semantik o‘zgarishlarga uchraganini aniqlash imkonini beradi.

Sir Gerard Clausonning An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish (XIII asrdan avvalgi turkiy tillar etimologik lug‘ati) asarida fe‘l so‘z turkumiga oid birliklar mukammal tarzda tasniflangan. Har bir fe‘l alohida fonetik, morfologik va semantik mezonlar asosida izohlangan bo‘lib, ularning qadimiy matnlardagi shakllari, turli turkiy tillardagi variantlari, qo‘llanish konteksti va hosila yasallish imkoniyatlari batafsil yoritilgan.

Clauson lug‘atida fe‘llar chig‘atoy tili materiallari asosida ko‘plab manbalar San. (Sanglax), Vel. (Veliaminov Zernov), Bad. (Badoyi‘ ul-Lug‘at va boshqalar) orqali

¹ Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Т.: Фан, 1989. –Б. 3; Қаранг: Садыков К. Глаголь в языке “Кутадгу билиг”. Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. –Т.: Фан, 1994. –С. 90-106; Исламов З. Тюркские глаголы “Мукаддат ал-адаб” Махмуда Замахшари. Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. –С. 107-115.

mustahkamlangan. Bu holat har bir fe'lining tarixiy taraqqiyot yo'lini, semantik o'zgarish bosqichlarini va leksik makonini aniqlashda ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, qadimgi turkiy, uyg'ur, qoraxoniylar, qipchoq, o'g'uz, chig'atoy kabi tillardagi qo'llanishi ham alohida qayd etiladi.

Xorijiy olimlardan Marcel Erdal, Talat Tekin, Marek Stachowski, Erhan Aydın va boshqalar Clauson lug'ati yuqori baholashgan va etimologik manba sifatida o'z tadqiqotlarida foydalanishgan. Xususan, Agop Dilaçar 1972-yilda lug'atning nashri munosabati bilan yozgan maqolasida asarni "...qadimgi turkiy tilshunoslikda asosiy manba sifatida tan olish kerak"²ligini ta'kidlagan.

Clauson tomonidan qo'llangan etimologik kodlash usuli ushbu lug'atni keng qamrovli ilmiy manbaga aylantiradi. Har bir fe'lining kelib chiqishi, o'zgargan shakllari, semantik siljishlari va morfologik yasash bosqichlari ketma-ketlikda bayon etiladi. Quyidagi misollar orqali chig'atoy tilidagi ba'zi fe'llarni etimologik jihatdan tahlil qilamiz:

"artil-" fe'li dastlabki ko'rinishda "art-" (ko'paymoq, ortmoq) fe'lidan yasalgan bo'lib, unga majhul nisbatni ifodalovchi "-il" affiksi qo'shilgan. Bu holatda fe'l majhul nisbatda bo'lib, "ko'paytirildi", "to'plandi", "oshirildi" kabi ma'nolarni bildiradi.

Clausonning ta'kidlashicha, Sanglax(San.) lug'atida "*takāpū kardan wa qaṭra zadan*" iborasi "to bustle about, make haste" (shoshmoq, shoshilmoq) tarzida tarjima qilingan. Bu esa *artil* fe'lini kontekstda noto'g'ri tushinishga olib kelgan. Aynan quyidagi ibora: "*tēñiz eyleben qat' u tağ artılıp*" (to'g'ri tarjimasi: "dengizdan o'tib, tog'ni oshib o'tib") lug'atda "hurriedly crossing the ocean and mountains" deb noto'g'ri tarjima qilingan. Aslida esa bu ifoda kimningdir muayyan hududdan (dengiz va tog') o'tganligini ifodalaydi. Bu yerda *artil*- "o'zini otmoq", "o'zini tashlamoq" ma'nosida emas, balki harakatni tugallagan holatda – "o'tib bo'lmoq" ma'nosida ishlatilgan.

Veliyaminov-Zernov (Clauson o'zining asarida "Vel." deb qisqartirib yozgan barcha manbalarni Vasiliy Pavlovich de Veliyaminov-Zernovning ishlari deb belgilagan) esa *artil* fe'lining "artayip" yoki "artanip" shakllari keltiradi. Natijada, "*arta/artan*" ko'rinishidagi fe'lni asos sifatida olib, unga "to cross" (kesib o'tmoq) deb izohlaydi. Bu esa aslida mavjud bo'lmagan fe'lining yasashiga sabab bo'ladi.

Clauson bu holatda o'qish xato bo'lsa-da, tarjima ma'nosi voqelikka yaqin deb hisoblaydi. Ya'ni, harakatning tugallanishi "o'tib ketmoq" deb talqin etilishi mumkin, ammo bu fe'l shaklining o'zi xato o'qilgan. Clauson yana bir misolni keltirib, u ko'proq lirika va emotsional ifodaga ega she'riy kontekstda uchrahini ta'kidlaydi. Misol: "*bu köürür her kırıpkimke artılıp bir qaṭra yaş*" (tarjimasi: "bu odam mening har kiprigim ustida artilib (to'planib qolgan) bir tomchi yoshni ko'radi"). Bu yerda *artil*- fe'li "yig'ilmoq", "to'planmoq" ma'nosida ishlatilmoqda. Ko'z yoshining kiprik ustida yig'ilishi, jam bo'lishi tasvirlangan bo'lib, fe'l o'zining passiv-yig'ilish ma'nosini saqlab qolgan. Xulosa qilib aytganda, "*artil*-" fe'li Chig'atoy tilidagi qadimiy passiv (mahul nisbatdagi) fe'llardan biri bo'lib, u *art* ('ortmoq,

² Dilaçar.A. Yeni Yayınlar: Sir Gerard Clauson. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth Century Turkish, XLVIII+çift sütun 989 s., Clarendon Press, Oxford, 1972", Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten 1973. (Tanıtma)

ko'paymoq') asosidan yasalgan. Clauson tomonidan keltirilgan manbalarda ushbu fe'ning noto'g'ri talqini ko'proq kontekstdan kelib chiqib, "shoshmoq", "tez o'tmoq" kabi ma'nolarda noto'g'ri tarjima qilingan. Vaholanki, fe'ning asl semantik yuki "ko'paytirildi", "to'plandi", "yig'ildi" kabi ma'nolarga ega. Ayniqsa poetik matnlarda bu ma'no yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu sababli, tarixiy manbalarda fe'lni aniqlashda uning kontekstual ishlatilishiga chuqur e'tibor qaratish lozim.

uvtan fe'li Clauson lug'atida: to feel shy, bashful; to be ashamed (of something); to be abashed (by something) ya'ni "uyalmoq, or qilmoq, sharm qilmoq" ma'nolarini bildiradi. Bu fe'l odatda kimdandir, nimadandir uyalish holatini anglatadi. utgan- – o'tgan zamon shakli (fe'ning tarixiy morfologik varianti), *uvut* – asos, ot shakli, "uyat", "or" ma'nosini bildiradi, *-an* fe'l yasovchi qo'shimcha. Misol: Xorazmiy (Xak.): "Al anū baxshisindin bulut uvtanur" – "Bulutlar uning saxovatidan uyalmoqda".

"Qutadg'u bilig", "Tuhfat at-Turk", "Kaykavusnoma" va boshqa manbalarda bu fe'l arab tilidan olingan *istihyā* ("uyalmoq") bilan bir qatorda ishlatilgan.

Zamonaviy o'zbek tilida bu so'zning shakli *uyalmoq* ko'rinishida saqlanib qolgan. Ammo uning tarixiy ildizlari *uvtan-*, *utan-*, *uvutlan-* bugungi shakllarning qanday shakllanganini, ularning ichki tuzilishini va semantik taraqqiyotini tushunishga yordam beradi. Bu fe'l O'zbekiston hududidan tashqarida, boshqa turkiy tillarda ham turlicha shakllarda yashab qolgan: Qozog'istonda: *oftan-*, Turkmanistonda: *utan-* kabi shakllari mavjud.

Ushat fe'li qadimgi turkiy *uv-* yoki *uva-* ildiziga borib taqaladi. Bu ildiz "maydalanish", "parchalanish" holatini ifodalovchi harakatni bildiradi. "*Ushat-*" esa shu ildizdan yasalgan shaklidir. Ma'nosi esa shunchaki biror narsani ezish, maydalash va sindirish bilan bog'liq.

Ushat fe'li dastlab fizik harakat – maydalash, sindirish bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik bu ma'no majoziy ko'rinishlarda ham ishlatila boshlagan. Qutadg'u biligda keltirilgan misol: *sözde yazsa uşatır tişin* – "Og'zidan xato so'z chiqsa, tishini maydalaydi" (ya'ni noto'g'ri gapirsa, o'ziga zarar yetadi).

uşat-, *usat-*, *uvşat-* barchasi bir ildizdan yasalgan, bitta leksemaning turlicha variantlari. Boshqa shevalarda yoki tillarda (masalan, O'zbek, Uyg'ur) turli talaffuz variantlari bilan yashab qolgan. Izohli lug'atlardagi izohi (ZUL – O'zbek tilining izohli lug'ati) ***ushatmoq***³: 1. Bo'lak-bo'lak qilib sindirmoq, mayda bo'laklarga ajratmoq.

2. urmoq, urib pachoqlamoq, 3. Yirik pulni shu qiymatdagi mayda pullar bilan ayirboshlamoq, maydalamoq, ko'chma ma'noda: ***ro'zani ushatmoq*** ovaqt yeb qo'yib, ro'zani buzmoq. *Janobi ustoz. Ro'zangizni ushatib qo'ydingizmi.*

eymen- fe'li qadimgi turkiy tillarda "uyalmoq, iymannoq, tortinmoq, istihola qilmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Bu fe'l odatda biror shaxs yoki hodisaga nisbatan (ko'pincha dativ yoki ablativ qo'shimchalari bilan) uyat yoki istihola tuyg'usini bildiradi. Uyg'ur tilidagi ba'zi matnlarda aymen- shaklida yozilishi ham kuzatiladi, bu yozuv shakli so'zning imen- tarzida noto'g'ri o'qilmasligi uchun qo'llanilgan. Fe'l semantik jihatdan *uytan-*, *uyad-*, *uyal-* kabi so'zlar bilan yaqin bo'lib, barchasi uyat, tortinish, jamiyat oldida noqulaylik holatini anglatadi. Buddist

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

matnlarda bu fe'l sanskritcha *parisaccharadyabhayam* (jamoat oldida uyatga qolishdan qo'rqish) so'ziga tarjima sifatida qo'llanadi, bu esa so'zning diniy-madaniy kontekstdagi qo'llanishini ko'rsatadi. Misollar orasida "*eyme:nma:klig korkinc*" iborasi — ya'ni "uyalish qo'rquvi" — bu ikki holatning birgalikda mavjudligini bildiradi. "Qutadg'u bilig"da "*özüm 'uđrın aysa yeme eymenü*" kabi ifodalar keltiriladi, bu yerda "*eymenü*" fe'li uyat va istihola holatini ifodalash uchun ishlatilgan. "Devonu lug'oti turk"da "*eymenür*" (u uyaladi), "*eymenmek*" (uyalmoq) shaklida keltirilgan. Arab tilidagi tarjimalarda ushbu fe'l "*ihtirāz*" (ehtiyotkorlik), "*şarm*" (uyalish), "*hayā*" (istihola) va "*xawf*" (qo'rquv) so'zlari bilan ifodalangan, bu esa fe'lning ruhiy kechinmaga asoslangan ko'p qatlamli ma'nosini ochib beradi. Xorazmiy va Chig'atoy turkiysida ham bu fe'l keng qo'llanilgan: "*eymen utan hicab eyle*" tarzidagi iboralar so'zning yaqqol semantik doirasini ko'rsatadi. Usmonli turkchasi matnlarida esa XIV-XVI asrlarda "*eymen-*" fe'li odamlar bilan munosabatda tortinish, uyalish ma'nosida ishlatilgan.

Törü- fe'li qadimgi turkiy tillarda keng qo'llanilgan bo'lib, "paydo bo'lmoq", "yaratilmoq", "vujudga kelmoq", "tug'ilmoq" kabi ma'nolarni bildiradi. Fe'l asosan intransitiv (o'zlik) bo'lib, o'z-o'zidan sodir bo'luvchi hodisalarni ifodalaydi. Ko'pincha passiv ma'noda — ya'ni "yaratildi", "paydo bo'ldi" mazmunida ishlatiladi. Bu fe'lning ilk shakllari qadimgi yozma manbalarda uchraydi. Masalan: "*Türkü vını kişi: oğlu: kop ölgeli: törümiş*" (Odamzod o'lish uchun yaratilgan) — bu jumla qadimgi turkiy matnlardan olingan bo'lib, insonning mavjudlik sababini falsafiy tarzda ifodalaydi (Clauson, 1972, v. 1251).

Uyg'ur manixey va buddaviy matnlarida "*törüyür belgürer*" — 'paydo bo'ladi va ko'rinadi', "*karimak ölmek törüyür*" — 'keksalik va o'lim yuzaga keladi', "*yér teñri törümişte*" — 'yer va osmon yaratilgandan beri' kabi ifodalar bu fe'lning diniy-falsafiy matnlardagi o'rini ko'rsatadi.

Chig'atoy tilida XV asrdan boshlab *töre-*, *törü-* shakllarida uchraydi va "hosil bo'lmoq", "yaratilmoq", "vujudga kelmoq" kabi ma'nolarda ishlatiladi. Tilshunos Koshg'ariy (*törü:r, törüme:k*) bu fe'lni "*xuliqa*" (خلق — yaratildi) degan arabcha so'zga muqobil sifatida keltirgan (Mahmud Koshg'ariy, Devonu Lug'atit-Turk, III, b.262).

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ushbu fe'l quyidagicha keltirilgan: "*Törümiş neñ erse yokalğu turur*" — agar biror narsa yaratilgan bo'lsa, u albatta yo'q bo'ladi (Qutadg'u bilig, b. 692).

tüz-/*duz-* fe'li muhim semantik yuklama bilan ajralib turadi. Uning asosiy ma'nosi — "tekislash", "tartibga solish", "silliqlash", "joy-joyiga qo'ymoq", "to'g'rilamoq", "barpo etmoq", "tuzmoq" kabi tushunchalarni qamrab oladi. Bu fe'l qadimiy matnlardan tortib zamonaviy turkiy tillargacha bo'lgan jarayonda fonetik va morfologik jihatdan rivojlanib, bugungi kungacha yetib kelgan.

Qadimgi yozma manbalarda "*tüz-*" fe'li ilk bor VIII asrga oid uyg'ur buddaviy matnlarida uchraydi: *işlerin tüzgeli* ("ularning ishlarini tartibga solish uchun"). Bu ibora "*tüz-*" fe'lining ijtimoiy hayotdagi muhim vazifalarni bajarishda qanday ishlatilganini ko'rsatadi.

Mahmud Koshg'ariy: *tüze:r, tüzme:k* shakllarini keltiradi. *Ol yé:rig tüzdi* ("u yerlarni tekisladi")⁴. "Qutadg'u bilig" asarida: *könül til tüze* ("ko'ngil va tilni tartibga solmoq"), *bođunuğ tüzzer* ("xalqni tartibga solmoq"). Sanglax(San.) lug'atida bu fe'ning *tiz-* shakli berilgan va fors tilidagi *sākhtan* va *ārāstan* fe'llariga tenglashtirilgan. Izohli lug'atlardagi izohi (ZUL – O'zbek tilining izohli lug'ati) **Tuzmoq**⁵: 1 Barpo etmoq, vujudga keltirmoq, yaratmoq. Armiya tuzmoq. Komissiya tuzmoq. Jamiyat tuzmoq. 2 Tarkibiy qismlardan yaxlit narsa yaratmoq, tarkib etmoq, tartib qilmoq. Jumla tuzmoq. Ro'yxat tuzmoq. 3 Turli material, ma'lumot va sh.k. ni yig'ib va ma'lum tartibda joylashtirib, yaxlit bir holga keltirmoq; yaratmoq. To'plam tuzmoq. Ikki tilli lug'at tuzmoq. 4 Rasmiy ravishda kelishib, biror hujjat yozmoq. Dalolatnoma tuzmoq. 5 Uyushtirmoq; qurmoq, qilmoq. Ular yuksak oilalarning o'g'illari. Ularning kissalarida oltin-kumush mo'l. Ular kechalar «shirin suhbatlar» tuzadilar. 6 - kam qo'll. ayn. tuzatmoq 2. Buzilgan ishni botir tuzar. Maqol. 7 - ayn. tuzamoq. Elda qolgan kattalar To'lg'onning oldida dasturxonni tuzib, olib ketib xizmat qilib turdi. «Oysuluv».

So'z homofon bo'lib, *tüz* sifat bilan uyg'unlashgan: bu sifat turli Turkiy tillarida "tekis", "silliqlik", "to'g'ri" kabi ma'nolarni anglatadi. Bu fe'ning ayrim lahjalarda *düz-* shakli ham ishlatiladi (masalan, Qrim turkchasi, Ozarbayjon, Turkman tillarida). Shuningdek, ba'zi tillarda bu ma'noni ifodalovchi denominativ (sifatdan yasalgan) fe'llar ham ishlatiladi: masalan, *tüze-* (*tüz* + *-e* fe'l yasovchi qo'shimchasi bilan).

Fe'llarning etimologik tahlili til tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'zlarning kelib chiqishi, shakl va ma'no jihatidan qanday o'zgarishlarga uchraganini aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqolada Chig'atoy tilidagi ayrim fe'llar misolida ularning etimologiyasi tahlil qilindi. Tahlillar Sir Gerard Clausonning "An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish" asariga asoslangan bo'lib, bu lug'at qadimiy turkiy fe'llarning kelib chiqishi, kontekstual qo'llanilishi va semantik taraqqiyotini aniqlashda ishonchli manba vazifasini bajaradi. Chig'atoy tilidagi fe'llarni o'rganish orqali turkiy tillar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni yoritish, ularning morfologik va semantik rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglash mumkin. Bunday izlanishlar zamonaviy o'zbek tilining ildizlarini ochib berish va boy leksik merosni to'g'ri talqin qilishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.Т. I-IV. Э. Фозилов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983-1985.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
4. S.G.Clauson An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish, London, Oxford University Press, 1972.

⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

5. Dilaçar.A. Yeni Yayınlar: Sir Gerard Clauson. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth Century Turkish, XLVIII+çift sütun 989 s., Clarendon Press, Oxford, 1972”, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten 1973. (Tanıtma)
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova R., Qurbonova M., Abuzalova M., Yo‘ldosheva D. Hozirgi o‘zbek tili. – T., 2017.
7. Шарипова Ў. Ўзбек тилида юмуш феълларининг маъно валентликлари. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 1996. – Б.19.
8. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Т.: Фан, 1989. –Б. 3; Қаранг: Садыков К. Глаголь в языке “Кутадгу билиг”. Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. – С. 90-106; Исламов З. Тюркские глаголы “Мукаддадат ал-адаб” Махмуда Замахшари. Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. –Т.: Фан, 1994. – С. 107-115.